

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN BOLALARNING MUSIQIY TA’LIMI FANIDAN MALAKA TEST SINОВI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Bolalarning musiqiy ta’limi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Bolalarning musiqiy ta’limi

1. Boshlang‘ich musiqa savodi;
2. O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti;
3. Xorij musiqa madaniyati;
4. Musiqa faoliyat turlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Boshlang'ich musiqa savodi.	Musiqa san'at turlaridan biri sifatida, musiqiy ifoda vositalari (kuy, lad, ritm, garmoniya, faktura)ning umumiy tavsifnomasi, tovush – fizik hodisa sifatida, musiqa va shovqinli tovushlari, tovushlarning xususiyati, tabiiy tovushqator, notalar, musiqiy kalitlar haqida bilimlarga ega bo'lishi.	33 %	13 ta
2	O'zbek xalq musiqa ijodiyoti.	Musiqaning asosi va manbai – xalq qo'shiqchilik ijodiyoti, o'zbek xalq musiqasining boy merosi, rivojlanish tarixi, bolalar tarbiyasida tutgan o'rni, o'zbek musiqasining ommaviy janrlarining turlari, o'zbek xalq cholg'ulari tarixi, maqom san'atining shakllanish davri haqida bilimlarga ega bo'lishi.	45 %	18 ta
3	Xorij musiqa madaniyati.	Xorij musiqa madaniyatining rivojlanish davri, opera va balet san'atining tarixi, xorij musiqa kompozitorlarining hayoti va ijodi haqida bilimlarga ega bo'lishi.	12 %	5 ta
4	Musiqa faoliyat turlari.	MTTda musiqa mashg'ulotining tarbiyaviy ahamiyati va tutgan o'rni., musiqa mashg'ulotining turlari, tinglash, kuylash, o'yin, musiqiy ritmik harakat va bolalar musiqa asboblari ijro faoliyatlarining tarbiyaviy ahamiyati va vazifalari haqida bilimlarga ega bo'lishi.	10 %	4 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	37 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	47 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	16 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. G.M.Sharipova, G.T.Tojiyeva. "Musika metodikasi", O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent.2012.

2. G.M.Sharipova."Musika va uni o'qitish metodikasi", Turon iqbol. Toshkent, 2006.

3. N.Yusupova. "Musika savodi, metodikasi varitmika" Musika. Toshkent.2012.

4. Q.N.To'xtasheva. "Bolalarning musiqiy ta'limi", Lesson press, Toshkent, 2023.

5. I.Akbarov. Musika lug'ati. "O'qituvchi", Toshkent, 1997.

6. O.Azimova "Garmoniya nazariy darsligi" Toshkent, 2001.

7. Ручевская Е. Функции музыкальной темы. Ленинград, 1977.
8. Музыкальная энциклопедия.
9. V.Vaxromyev. Muzikaning elementar nazariyasi. Toshkent, 1983 y.
10. Ф.Кароматов. Узбекская инструментальная музыка. ИЛИ им Г.Гуляма. Ташкент, 1972 г.
11. Давидова Н. Методика преподавания сольфеджио в ДМШ, Москва, 1978.
12. Yunusov R., Ibrohimov O. Solfedjio, Toshkent, 2004.
13. I.Dubovskiy, S. Yevseyev, I.Sposobin, B.Sokolov. Garmoniya darsligi. T., 1979 y.
14. И.Дубовский, С.Евсеев, И.Способин, Б.Соколов. Учебник гармонии. М., 1969 й.
15. Xorij kompozitorlarining asarlari. (tahlil uchun)

Qo'shimcha adabiyotlar

- 16.R.Tursunovaб G.Eursunova. Jahon musiqa tarixi.Toshkent-2017
- 17.M.Mamirov.D.Baltabayev. Dirijyorlik.1-qism.Toshkent-2010
- 18.R.S.Abdullayev.O'zbek mumtoz musiqasi.Yangi asar avlodi-2008